



## SANOAT KORXONALARINING ATROF-MUHITGA TA'SIRINI BAHOLASH (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)

Z.Z.Uzakov

QarMII Ekologiya va mehnat muhofazasi kafedrası dotsenti, b.f.f.d (PhD)

M.D.Jumayeva

“Atrof muhit muhofazasi” (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)

mutaxassisligi 1-kurs magistratura talabasi

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.8194685>

### ARTICLE INFO

Received: 21<sup>th</sup> July 2023

Accepted: 28<sup>th</sup> July 2023

Online: 29<sup>th</sup> July 2023

### KEY WORDS

Atmosfera, sanoat  
korxonalar, gazni qayta  
ishlash korxonalar, zararli  
moddalar.

### ABSTRACT

*Maqolada sanoat korxonalarining ishlab chiqarish jarayonida atrof-muhitga ta'sir ko'rsatayotgan manbalari hamda hosil bo'layotgan chiqindilar miqdorining tahlil natijalari keltirilgan.*

Atmosfera havosini ifloslantiruvchi asosiy omillar sanoat korxonalar, zavod va fabrikalar, avtotransport vositalari bilan bog'liqdir. Shuningdek, po'lat erituvchi pechlar, domna o'choqlari, koks-kimyoh sohasi, azotli o'g'itlar beruvchi zavodlar, ko'mir va rangli metall konlari, temir yo'l transporti vositalari ham atmosferaga uzluksiz zaharli moddalar tashlaydi [1].

Uglevodrodlarni qazib olish, tashish va qayta ishlashni ta'minlaydigan neft va gaz sanoatining ishlab chiqarish faoliyati atrof-muhitga antropogen ta'sir ko'rsatuvchi yetakchi omil hisoblanadi [2.]

O'zbekiston tabiiy muhitining ifloslanishiga qazib olish, qayta ishlash va qattiq yoqilg'idan foydalanishni o'z ichiga olgan yoqilg'i-energetika majmuasining tarmoqlari katta ta'sir ko'rsatadi. Hisob-kitoblarga ko'ra, 1 t ko'mir qazib olishda 20 m<sup>3</sup> metan aralashmali moddalar, 0,25 t shaxta ag'darmasi, razrezlarda 7 t ag'darma jinslar va 2,8 m<sup>3</sup> oqova suvlar hosil bo'ladi. Ko'mirni qayta ishlashda esa 0,23 t boyitish chiqindilari, yoqishda esa 0,25 t kul paydo bo'ladi [3].

Gazni qayta ishlash korxonalarida mash'alalardan chiqadigan zararli moddalarni kamroq xavfli moddalarga aylantirishga imkon beradi, masalan, yonish paytida vodorod sulfid oltinugurt dioksidiga, uglerod oksidi karbonat angidridga va boshqalarga aylanadi [4].

Eng ko'p zararli moddalarni havoga tashlaydigan yana bir soha neft-gaz sanoati hisoblanadi. U yiliga 225 ming tonna is gazini havoga chiqaradi, bir kecha-kunduzda 600 tonnadan ziyod moddani atmosferaga tashlaydi. Neft-gazni qayta ishlayotganda uglevodrodlar, sulfat angidrid, azot va karbonat angidridi, aldegid, ammiak zarralari atmosferani zaharlaydi. Bu sohaga sintetik kauchuk ishlab chiqarish ham kiradi, bu tarmoq havoga yengil uchuvchan va erituvchi moddalar tashlaydi. Neft zavodidan 25 kilometr masofada ham is gazi zarralari uchraydi [5].



Korxonada gazni qayta ishlashda chiqadigan chiqindi gazlar ushbu hududning atmosferasiga, atrof – muhitiga, o‘simlik va hayvonot dunyosiga o‘zining ta‘sirini o‘tkazib kelmoqda, buning oldini olish uchun zamonaviy takomillashgan texnologiyalardan foydalanishni yo‘lga qo‘yish zarur. Atmosferaga sanoat chiqindilari bo‘yicha birinchi o‘rinda elektroenergetika korxonalari (IES, qozonxonalar) 58%, undan keyin neftni qayta ishlash zavodlari – 25,0%, mashinasozlik – 3,6%, kimyo va neftkimyo – 3,4% [6].

So‘nggi yillarda respublikamizda yiliga 100 million tonnadan ortiq sanoat chiqindisi (uning 14 foizi toksik chiqindilar toifasiga mansub), 35 million tonnaga yaqin maishiy chiqindi hosil bo‘ladi. Chiqindixonalar va chiqindi saqlash omborxonalarida 2 milliard tonnaga yaqin sanoat, qurilish va maishiy chiqindi saqlanayotgani hamda ular 12 ming gektar maydonni egallab turibdi [7].

Qashqadaryo viloyatida mavjud bo‘lgan Tabiat resurslari boshqarmasi tomonidan nazoratga olingan korxonalar soni 6800 ta bo‘lib, shundan atrof-muhitga ta‘sir ko‘rsatuvchi 1-toifadagi obyektlar 17 tani, atrof-muhitga ta‘sir ko‘rsatuvchi 2-toifadagi obyektlar 221 tani, 3-toifadagi obyektlar 1797 tani, 4-toifadagi obyektlar 4765 tani tashkil etadi.

Shundan, atmosfera havosiga zararli moddalar tashlovchi korxonalar va tashkilotlar soni 558 ta bo‘lib, shundan 1-toifadagi obyektlar soni 17 tani, 2-toifadagi obyektlar soni 62 tani, 3-toifadagi obyektlar soni 467 tani, 4-toifadagi obyektlar soni 12 tani tashkil etadi.

Mazkur korxonalar tomonidan atmosfera havosiga bir yilda 199,7 ming tonna miqdorida zararli moddalar tashlanishi bo‘yicha meyorlar belgilangan. Shuningdek, atmosfera havosiga zararli moddalar tashlovchi manbalar jami 6609 ta bo‘lib, shundan 3820 tasi tashkillangan va 309 ta manba chang va gaz ushlab qurilmalari bilan jihozlangan.

2022 yilda atmosferaga umumiy tashlanmalar miqdori 208,0 ming tonnani tashkil qilib, 2018-2020 yilga nisbatan o‘rtacha 11 foizga (22 ming 5 tonnaga) kamaygan. Umumiy tashlanmalarining 85,0 ming tonnasi (40,0 foiz) transport vositalari hamda 123,0 ming tonnasi (60,0 foiz) sanoat va ishlab chiqarish korxonalari hissasiga to‘g‘ri keladi.

Xulosa qilib aytganda, mavjud sanoat korxonalarida samaradorligi yuqori bo‘lgan tozalash inshootlarini, qurilmalarni o‘rnatish; korxonalar atrofida ixotazorlar tashkil etishni tavsiya qilindi va shu bois korxonadan chiqadigan zararli moddalarni atrof muhitga ta‘sirini ruxsat etilgan meyorga yetkazish, tabiiy resurslarga salbiy ta‘sirini kamaytirish tavsiya etiladi.

## References:

1. Гришина Л.А. Влияние атмосферного загрязнения на свойства почвы / Л.А. Гришина. - М.: МГУ, 1990. - 205 с.
2. Бутовский Р.О. Автотранспортное загрязнение и энтомофауна / Р.О. Бутовский // Агрехимия, 1990. – №4. – С. 139-150.
3. [https://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/9\\_Sh\\_Muratova.pdf](https://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/9_Sh_Muratova.pdf)
4. Абросимов А.А. Экология переработки углеводородных систем / А.А. Абросимов. - М: Химия, 2002. 608 с.
5. <http://qashqadaryogz.uz/read/sanoat-korkhonalarining-atrof-mu-itga-ta-siri>
6. Tabiatni muhofazasi bo‘yicha Davlat Qo‘mitasi va BMTTDning O‘zbekistondagi vakolatxonasi. O‘zbekistonning indikatorlarga asoslangan ekologik profili, Toshkent 2008.



7. Муҳаммадисмоил Мухитдинович Маҳмудов, Дилфуза Махмудовна Дусмуродова  
ТОШКЕНТ ВИЛОЯТИ САНОАТ ЭКОЛОГИЯСИНИНГ УМУМИЙ ТАВСИФИ // Academic  
research in educational sciences. 2021. №4. URL: [https://cyberleninka.ru/article/n/toshkent-  
viloyati-sanoat-ekologiyasining-umumiy-tavsifi](https://cyberleninka.ru/article/n/toshkent-viloyati-sanoat-ekologiyasining-umumiy-tavsifi) (дата обращения: 28.07.2023).